



PHILOSOPHICAL ASPECTS OF DEVELOPING YOUTH'S AESTHETIC TASTE AND THINKING ON THE BASIS OF NATIONAL MUSICAL HERITAGE

Nasimjon Madaminov
Kokand State University
yevich@gmail.com
Kokand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: instrument, national, music, heritage, philosophy, aesthetics, thought, culture, performer, musician.

Received: 19.10.25

Accepted: 20.10.25

Published: 21.10.25

Abstract: This article presents information on the philosophical aspects of developing the aesthetic taste and thinking of young people on the basis of national musical heritage. It presents information on the fact that music is a means of education with enormous influence, a soul food that can give life-giving strength to the human psyche, and it helps people to enjoy, relax, enjoy, have fun, find peace, think, and engage in philosophical reflection.

MILLIY MUSIQIY MEROS ASOSIDA YOSHLARNING ESTETIK DIDI VA TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING FALSAFIY JIHLARI

Nasimjon Madaminov
Qo'qon davlat universiteti
yevich@gmail.com
Qo'qon, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: cholg'u, milliy, musiqa, meros, falsafa, estekika, tafakkur, madaniyat, ijrochi, sozanda.

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy musiqiy meros asosida yoshlarning estetik didi va tafakkurini rivojlantirishning falsafiy jihatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan, musiqa ulkan ta'sirchan kuchga ega bo'lgan tarbiya vositasi, inson ruhiyatiga hayot baxsh kuch bera oladigan jon ozig'idir, u kishilarning zavqlanishi, huzurlanishi, rohatlanishi, maroqli dam olishi, taskin topishi, fikrlashi, falsafiy mushohada qilishi uchun yordam berishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВКУСА И МЫШЛЕНИЯ МОЛОДЕЖИ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНОГО МУЗЫКАЛЬНОГО НАСЛЕДИЯ

Насимжон Мадаминов

Кокандский государственный университет

yevich@gmail.com

Коканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: инструмент, национальный, музыка, наследие, философия, эстетика, мысль, культура, исполнитель, музыкант.

Аннотация: В данной статье представлены сведения о философских аспектах развития эстетического вкуса и мышления молодёжи на основе национального музыкального наследия. В статье говорится о том, что музыка – это средство воспитания, обладающее огромным влиянием, духовная пища, способная дать живительные силы психике человека, помогающая человеку наслаждаться, отдыхать, веселиться, развлекаться, обретать покой, размышлять и предаваться философским размышлениям.

Kirish. O'zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasida ham "o'zbek milliy musiqiy merosini asrab-avaylash" bilan birga jamiyatda badiiy-estetik did va ideallar tizimini rivojlantirishga va bu orqali yoshlar tarbiyasiga ta'sir ko'rsatish, ularning san'atga bo'lgan qadriyatli munosabatini o'stirish, badiiy tafakkuri, estetik didini, emotsional ta'sirlanishi va ayniqsa musiqiy tafakkurini rivojlantirish vazifalari dolzarblik kasb etmoqda. SHu bois yoshlarning badiiy-estetik tafakkurini rivojlantirish asosida ularda estetik did, badiiy obrazlilikni tarbiyalash ehtiyoji yuzaga kelmoqda. Buning uchun yoshlarning badiiy-estetik tafakkurini rivojlantirishga imkoni beruvchi innovatsion yondashuvlar asosida ta'limni tashkil etish, ta'lim metodikasini integratsiyalashga qaratilgan pedagogik jarayonni tashkil qilish muhim vazifalardan biridir. Davaltimiz rahbari SH.Mirziyoevni «doimo o'ylantiradigan, tashvishga soladigan dolzarb masala bu - yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, madaniy saviyasi, bir so'z bilan aytganda, tarbiyasi bilan bog'liq ekanligi» va bu yo'nalishda katta ishlarni amalga oshirish va uning samaradorligini yanada kuchaytirish uchun bir qator masalalarga jiddiy e'tibor berishimiz zarur.

Adabiyotlar tahlili. Milliy musiqiy meros, estetik tarbiya va badiiy tafakkurni shakllantirish masalalari bo'yicha falsafa, pedagogika hamda san'atshunoslik yo'nalishida qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida hamda 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot

strategiyasida yoshlarning badiiy-estetik didini yuksaltirish, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Sharq mutafakkirlari – Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Jomiy va Rumiylarning asarlarida musiqaning inson kamolotidagi o'rni, estetik idrokni shakllantirishdagi ahamiyati keng yoritilgan. Forobiy o'zining “Musika haqida katta kitob” asarida musiqaning ruhiy-ma'naviy tarbiyadagi o'rnini ta'kidlab, uni inson tafakkurini charxlash vositasi sifatida talqin etgan.

Zamonaviy o'zbek olimlaridan Q. Quronov milliy tarbiyaning asoslarini, uning yoshlar dunyoqarashini shakllantirishdagi ahamiyatini tahlil etgan. B. Qodirov esa komil inson tarbiyasida estetik va axloqiy qadriyatlarning uyg'unligini alohida ko'rsatib o'tadi. B. Qosimovning “Milliy uyg'onish” asarida esa o'zbek milliy merosining jamiyat ma'naviy taraqqiyotidagi o'rni chuqur yoritilgan. Shuningdek, R. Qurbonov milliy g'oyaning yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi rolini ilmiy asoslab bergan.

San'atshunoslik yo'nalishida M. Qalandarovaning “Tarix yaratgan qo'shiqlar” monografiyasi o'zbek xalq qo'shiqlarining tarixiy va tarbiyaviy ahamiyatini ochib beradi. I. G'anieva esa o'zbek musiqasida “Tanavor” janrining falsafiy-estetik xususiyatlarini ilmiy asosda tadqiq etgan.

Falsafa va psixologiya sohasida E. G'ozievning “Tafakkur psixologiyasi” asarida estetik idrokning psixologik mexanizmlari, inson tafakkuridagi estetik qobiliyatlarning shakllanishi haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Shu bilan birga, G'ulom Zafariy o'z maqolalarida milliy cholg'ularimizni asrab-avaylash masalasini ko'tarib chiqqan bo'lib, bu fikrlar bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan.

G'arb olimlari – Aristotel, Platon, J. Dewey, H. Read singari mutafakkirlarning qarashlarida ham musiqaning estetik va axloqiy tarbiyadagi o'rni muhim manba sifatida ko'rsatib o'tiladi. Jumladan, J. Dewey san'atni inson tajribasining ajralmas qismi sifatida talqin qilsa, H. Read estetik tarbiyani shaxs kamolotining eng muhim omillaridan biri sifatida ko'rsatadi.

Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, milliy musiqiy meros va estetik tarbiya masalalari qadimdan mutafakkirlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Hozirgi davrda esa ushbu merosni zamonaviy ta'lim jarayonlariga integratsiya qilish, uni innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida yoshlar ongiga singdirish muhim ilmiy-amaliy vazifa sifatida dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Natija va muhokama. Estetik did va badiiy tafakkur - inson mahnaviy kamolotida muhim o'rin tutuvchi omillardan biri bo'lib, biror kishining xoxish - istagi tufayli emas, jamiyatning qonuniy ehtiyojlaridan kelib chiqadigan zaruriyatdir. Estetik tarbiyaga e'tibor kecha yoki bugun paydo bo'lgani yo'q. Uning ildizlari uzoq o'tmishga borib taqaladi. Qadimgi Misr, Xitoy, Hindiston, Yunoniston, Rumo faylasuflari insonning mahnaviy va jismoniy kamoloti masalalariga

jiddiy e'tibor qaratishgan. Arastu, Navoiy, Rumi kabi mutafakkirlar tahlimotlarida mahnaviy kamolot, komillikning muhim sharti sifatida ta'kidlab o'tilgan. Bugungi davrda ham insonni borliqdagi go'zalikka, nafasat olamiga yaqinlashtirish, yahni estetik tarbiya davlatimizning ijtimoiy rivojlantirish vazifalari bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki estetik tarbiya ijtimoiy hayotimizning barcha sohalariga tegishlidir.

“Biz qurayotgan erkin fuqarolik jamiyati va unda har bir shaxsning yuksak estetik didga erishishi zamon talabidir. Chunki estetik did egasigina haqiqiy erkin fikrlash salohiyatiga, dunyo, Vatanni, hayotni go'zallik prizmasi orqali ko'rish qobiliyatiga ega bo'ladi”. Estetik tarbiyaning vazifasi faqatgina go'zallikni tushunish va baholashni o'rgatish emas, ijtimoiy hayotda amalga oshirish uchun faol ishtirok etishga undashdir.

“Estetik tarbiya muammosi avvaldan jamoatchilik diqqat markazida. So'nggi paytlarda bu to'g'risida juda ko'p fikrlar aytili. Bahzilar estetik tarbiyaning asosiy vazifasi xalqda ijodiy faollikni tarbiyalash, deyishsa boshqalar go'zallikni xunuklikdan farqlashni o'rgatish, uchinchilar yuksak mahnaviyat, rivojlangan estetik didni tarbiyalash deya ta'kidlashadi”. Darhaqiqat, estetik tarbiyaning asosiy vazifalaridan biri estetik did tarbiyasidir. Estetik ong tizimida o'ziga xos o'rin tutuvchi estetik did eng nozik, ziddiyatli, murakkab shuningdek qiziqarli va dolzarb masalalardan biri. Estetik didning o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning voqelikka, narsa yoki hodisaga ko'rgan holatda beriladigan bahoda namoyon bo'ladi. Ilk bor ko'rib turgan sanhat asari, mutoala qilingan kitobga mushtariy yoshi, kasbi, mahlumoti darajasiga ko'ra turlicha baho beradi. Mana shu jihatning o'zi uning faqat alohida insonga xos bo'lgan ammo, jamiyat uchun ham muhim ekanligini, yahni «shaxsiy masala» emasligini ko'rsatadi. Bu oddiygina «yoqadi yoki yoqmaydi» so'zlari orqali ifodalansada bizning estetik didimiz, dunyoqarashimiz, madaniyatimizni namoyon etadi. Bu bahoda bizning qarashlarimiz, tajribamiz, biz yashayotgan jamiyat, davr qarashlari ham mahlum mahnodan aks etadi.

Estetik did his - tuyg'u va tafakkur birligi, inson o'zligini ifodalovchi, bir vaqtning o'zida ham uning, ham unga berilgan baho hamdir. Estetik did biz yashagan davr, biz ko'z ochgan vatan, biz eshitgan qo'shiq, biz qiziqib o'qiydigan kitob, gazeta – jurnallar kabi mahnaviy boyliklarni idrok etish jarayonida shakllanadi va rivojlanib boradi. “Har bir inson o'z davlatining fuqarosi bo'lgani kabi, o'z davrining ham fuqarosidir va agar o'zing yashayotgan axloq va odatlar bilan o'sha doiradan chiqish mumkin bo'lmasa, unda o'z faoliyating, diding va ehtiyojlarini tanlash” mumkin.

Estetik did insonni o'rab turgan muhit orqali shakllanadi. Inson go'zal buyumlar va narsalar olamida yashasa, g'oyaviy-estetik jihatdan yetuk badiiy asarlar va matbuot bilan muloqotda bo'lsa, go'zallikdan zavqlanishni o'rganadi, uni his etadi, uni yaratadi. Aksincha tuban muhit, inson didini ham tubanlashtirib qo'yadi. Badiiy did bilan estetik did bir-biridan farq qilsa-da, har doim bir-

birini to'ldirib boradi. Badiiy did estetik didga asoslanadi. turli janrlardagi badiiy adabiyot namunalari-hikoyalar, qissalar, mumtoz asarlar, ulardagi badiiy obrazlar, tasviriy vositalar jurnalxonning hissiyotlariga tahsir ko'rsatadi, badiiy qadriyatlarni idrok etish va o'zlashtirishiga yordam beradi, estetik zavq bag'ishlaydi.

O'zbekistonda modernizatsiyalash davrida mahnaviyatimizni yuksaltirish, tahlim-tarbiya tizimini takomillashtirishga katta ahamiyat berib kelinmoqda. Har qanday mustaqil davlat o'zining yuksak mahnaviyati va madaniyati bilan qudratlidir. Olim A.Sher "Estetik did tushunchasining o'ziga xosligi shundaki, u bir tomondan, idrok, fahm, farosat kabi ildizi aqlga borib taqalsa, ikkinchidan, o'zining ehtiros, his-hayajon, subhektiv baholash xususiyati bilan ulardan ajralib turadi. Yoki, boshqacha qilib aytganda, biz ongning, birinchi hodisada – haqiqatga, keyingisida – ezgulikka, uchinchisida – go'zallikka munosabatini uchramiz." Ushbu fikridan ham anglashimiz mumkin estetik did axloqiy va estetik madaniyat bilan bevosita bog'liq. Zero, u ham aqliy, ham axloqiy, ham hissiy tarbiya uyg'unlashgan umumiylikdan iboratdir. Chunonchi, didning to'rt xil darajasi haqida mavjud fikrlar uning axloqiy-estetik madaniyat darajasini ham namoyon etishini e'tibordan qochirish lozim. Bu darajalar odamlarning, madaniylik toifasi bilan bog'liqdir. Jamiyatda yuksak estetik didga ega bo'lgan kishilarning ko'pligi uning madaniy, axloqiy-estetik jihatdan taraqqiy etishida muhim o'rin tutadi.

G'arb dunyosini faqat qora bo'yoqlarda ko'rsatish ham adolatdan emas. SHu mahnoda jahondagi mashhur bastakorlar: Betxoven, Motsart, Bax, zamondosh bastakorlar yaratgan musiqa holat va kayfiyatga qarab insonga turlicha tahsir qilishi aniqlangan. Ular bastalagan kuylar ezgulik va insonpar-varlik ruhida bo'lgani uchun ham hanuz muhlislar tomonidan sevib tinglanadi. Hatto bahzi mukammal kuylar umidbaxsh va xayotbaxshligi bilan farqlanib, tibbiyotda, tibbiy muassasalarda qo'llanayotgani hamda yaxshi samara berayotgani ham e'tiborga loyiqdir.

Agar adolat bilan kuzatsak, shunga amin bo'lamizki, mumtoz kuyni eshitganda asab tinchlanib, sarak-sarak bo'lib, boshlar qimirlagan bir holatda g'arb estradasi ohanglariga o'z-o'zidan oyoqlar harakatga keladi. Bosh bilan oyoqning farqi, ularning vazifasi yaxshi mahlum. Shundan ham ayon bo'ladiki, kishining bosh yoki oyog'ining qimirlashidan qanday inson ekanligini aniqlab olish oson. Shunday kuzatuv usuli bilan o'rta asrlarda diniy ihtiloflar, kurashlar chog'ida musulmon mamlakatida musulmonlar orasiga kirib olgan missioner-ayg'oqchilar ushlab olingan.

Musiqa inson qalbida kuchli emotsionalg' tuyg'u uyg'otadi. Musiqa yordamida uning badiiy idroki o'sib, hissiyotni yanada boyitib boradi. Yoshlarda musiqaviy idrokni o'stirmay, ularning musiqaga mehr-muhabbatini yetarli darajada qiziqitirmay turib, har tomonlama jismoniy, boy mahnaviy va axloqiy sifatlarni tarbiyalab bo'lmaydi. Musiqaga yoshlikda uyg'ongan qiziqish kishining keyingi musiqaviy rivojida kuchli tahsir o'tkazadi, boshqa ko'nikma va didlarning

shakllanishini tahminlaydi, yaxshi musiqali didni tarbiyalaydi. Musiqa estetik va mahnaviy kayfiyatning ulkan manbaidir. Bu tuyg'u kishiga uning butun hayoti davomida tahsir o'tkazib, his-tuyg'u uyg'otadi, hayajonlantirib, harakatga chorlaydi. Musiqa kishini ilhomlantirib, uning qalbini to'liqlantiradi, tetiklashtirib, kuch - quvvat bag'ishlaydi. SHu bilan birga mungli yangragan kuy kishini g'am-g'ussaga, iztirobga soladi. Bu, ko'p jihatdan kishining musiqani qay darajada idrok etishiga, uning tinglash qobiliyati va o'zlashtirishga, estetik didi, umumiy madaniyatiga bog'liqdir. Shunga ko'ra musiqali idrok etishning vazifasi va mazmunini aniqlash muhimdir. Bular shaxsning har tomonlama rivoji, jumladan estetik tarbiyasi vazifalari bilan bog'liq umumiy maqsadlar bilan belgilaydi. Mahlumki, bunday vazifalar yoshlarni musiqa sohasidagi faoliyatga jalb etish, badiiy musiqaga nisbatan estetik idrok etishni va emotsional o'zlashtirishni rivojlantirish, unga muhabbatni tarbiyalash, musiqali qobiliyatni o'stirish, musiqali didni shakllantirish, qisqasi yoshlarda badiiy ijodkorlik iqtidorini rivojlantirishdan iborat bo'lmog'i darkor.

Xulosa. Musiqaning, agar ijro mahorat bilan bajarilsa, yaxshisi va yomoni bo'lmasligi ma'lum. Musiqa turini qaysi biri mahqul bo'lishi shaxsning yoshi, millati, musiqaviy madaniyat saviyasi, musiqaning tarkibi, estetik didning darajasi, kishining individual psixologik xususiyatlari kabi bir qator omillarga bog'liq. Yoshlar katta yoshdagilarga nisbatan rok musiqasini mahqul ko'rishlari yuqoridagilar bilan birga yana eng muhim ikki omil bilan belgilanadi:

1. Yosh bilan bog'liq psixologik xususiyatlar. Ma'lumki, yoshlik, serfaoliyatlilik, harakatchanlik, tinib-tinchimaslilik va h.k.

2. Moda va tengdoshlarga taqlid. Yoshlar o'z tengdoshlaridan ko'p narsalar oladilar, ko'r-ko'rona taqlid qiladilar. Har bir yoshda individual orzularidan tashqari umumiy manzaraga ergashish tamoyillari mavjud.

Musiqa sanhati insonning yoshligidan unga bevosita va kuchli tahsir o'tkazib, uning umumiy madaniy rivojida katta o'rin tutadi. Jamiyat madaniy hayotida yanada kengroq o'rin tutayotgan musiqa kishiga butun hayot davomida uning doimiy hamrohi hisoblanadi. Musiqa - inson yuragiga juda chuqur kirib boruvchi yagona sanhat bo'lib, qalb tug'yonini yorqin ifodalash qudratiga ega.

Musiqiy - estetik tarbiya jamiyat kishisini garmonik tarbiyalash yo'lida olib borilayotgan ulkan ishning tarkibiy qismiga aylanmog'i kerak. Omma orasida musiqali targ'ibot olib bormay turib, to'laqonli natijalarga erishib bo'lmaydi. Yoshlar bilan musiqali ish olib borish ayniqsa katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekistonda ijtimoiy-axloqiy va gumanistik fikrlar tarixining muhim bosqichlari. –Toshkent: «Falsafa va huquq» instituti nashriyoti, 2007. – 76.

2. Qahharov N.V. Vokal asoslari. O'quv qo'llanma. - Toshkent.: «Iqtisod-moliya», 2008. –B.314
3. Qalandarova M. Tarix yaratgan qo'shiqlar. Monografiya. -Toshkent: Fan, 1987. – B. 23.
4. Qodirov B. Komil inson tarbiyasining pedagogik asoslari. – Toshkent: Mehnat, 2001. –B.195.
5. Qosimov B. Milliy uyg'onish. – Toshkent: Mahnaviyat, 2002. –B.400.
6. Quronboev Q.Q. Talabalarning mahnaviy-ijtimoiy faolliklarini rivojlantirishning pedagogik asoslari. (Yoshlar tashkilotlari misolida). Ped.fan.nomz. yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2000. –B.155.
7. Quronov M. Maktab mahnaviyati va milliy tarbiya. – Toshkent: Fan, 1995. –B. 118.
8. Quronov M. Bizni birlashtirgan g'oya. –Toshkent.: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2016. –B. 348.
9. Qodirova Z. O'zbekiston jamiyati hayotining barcha sohalarini isloh qilishda yoshlarning ijtimoiy faolligi. Falsafa fanlari d-ri... dis. –T., O'zFA Falsafa va huquq ins-ti, 1999
10. Qurbonov R. Milliy g'oyaning yoshlarni harbiy vatanparvarligik ruhida tarbiyalashdagi roli. Falsafa fanlari nomzodi dissertatsiya avtoreferati. –Toshkent, 2009. –B.24.
11. G'anieva I.A. O'zbek musiqasida “Tanavor”. (Tarixiy va nazariy muammolar kesimida): Avtoref. dis. ... sanhatshunoslik fan. nom. –Toshkent: O'zbekiston badiiy akademiyasi, 2008. –B.22
12. G'oziev E. Tafakkur psixologiyasi / Dorilfunun talabalari uchun qo'll. – Toshkent: O'qituvchi, 1990. –B.184.
13. G'ulom Zafariy G'. CHolg'umizni o'limdan qutqaraylik. // mahorif va o'qituvchi. 1925. № 1.
14. G'ulom Zafariy. O'zbek musiqasi to'g'risida // Alanga. 1930 yil yanvarg'. № 1.